

ISSN 2010-9075

БЕРДАҚ атындағы ҚАРАҚАЛПАҚ
МӘМЛЕКЕТЛИК УНИВЕРСИТЕТИНИҢ

ХАБАРШЫСЫ

БЕРДАҚ номидаги ҚОРАҚАЛПОҚ
ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИНИНГ

АХБОРОТНОМАСИ

ВЕСТНИК

КАРАҚАЛПАҚСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
УНИВЕРСИТЕТА им. БЕРДАХА

3

НӨЖИС 2020 НУКУС

СОДЕРЖАНИЕ

ЕСТЕСТВЕННЫЕ И ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

**МАТЕМАТИКА. ФИЗИКА.
ТЕХНИКА.**

Айтбаев К.Р. Разработка конструкции отопительного прибора с промежуточным теплоносителем	4
Таджиходжаева М.Р., Косымбетов Б.Е., Даулетов М.Б., Торешов Д.Б. Конструктивный системы в природе и дорожных машинах	7
А.Б.Абубакиров, И.Қ.Баймуратов, А.Д.Утемисов, М.Т.Шарипов. Электр таъминоти тизимларида реактив қувват манбаларини бошқаришнинг кўп фазали токлари датчикларининг динамик тавсифлари	9
Mirzataev S.M., Raximberdiyev Q.B., Mirzataeva V.M. Adleman – Lenstrning katta sonlarni tublikka tekshirish algoritmining asimmetrik kriptosistemalar rivojidadagi ahamiyati	13
Уразымбетова Э.П., Казымбетова М.М. Решение оптимизационной задачи коммивояжера с использованием муравьиного алгоритма	16
Турманов И., Алланиязов Ф., Палъанов Б., Шамуратов М. Тоқымашылык материалтанъу пәнинин математика менен байлынысы	19

**ХИМИЯ. ТЕХНОЛОГИЯ
БИОЛОГИЯ. ГЕОГРАФИЯ**

Хасанов А.О., Джолдасов А.Б. Қоңырат-Мойнақ автомобил жолы бойлап инновацион ландшафт дизайн ислерин шөлкемлестириў мәселелери	21
М.М.Махмудова*, Г.Б.Караматова**, Н.А.Утимуродов*** potentilla I. туркум турларининг аҳамияти	25
Росабоев А.Т., Утегенов У.А. Бир чигитли пахталарни саралаш учун истиқболли йўналишни танлаш	28
Умиров Ф.Э., Музафаров А.М., Умиров У.Ф., Пирназаров Ф.Г. Исследование минерального состава сапонитов учтутского месторождения	32

ЭКОНОМИКА. ФИНАНС.

Мадаминов И.О. Худудларда инвестиция фаолигини ошириш масалалари	35
Кўзибоев Б.А. Самарқанд вилоятида кичик бизнес ва тадбиркорликнинг ҳолати, муаммолари ва ечимлари	38
Raximov Z.O., Ismailov N.I. Rivojlanayotgan raqamli iqtisodiyotda raqamlashayotgan turizmning ahamiyati	41
Аюбов И. Ўзбекистон туризм хизматлари бозорида инвестицион муҳитини методологик-услубий асосларини такомиллаштириш	44
Алимова М.Т., Умаров Т.О. Институциональные основы создания и функционирования свободных туристских зон в Узбекистане	48
Халмуратов Қ.И. Давлат ва хусусий сектор шерикчилиги концепсиясининг генезиси	52
Шамуратов А. Ш. Меҳнат бозорида малакали кадрларни тайёрлаш тизимини жорий этиш	57
Кадирова М.М. Талабаларда иқтисодий кўникмаларни ривожлантиришда интерактив таълим технологияларидан фойдаланиш имкониятлари	58
Инятов А., Бабаназарова С. Экономиканы модернизациялаўда инвестициялардың роли хэм әҳмийети	62
Исаков Ж.Я., Халлиева Н. Р. Ўзбекистонда инвестицияларнинг роли ва уларнинг ривожланиш истиқболлари	65
Мусалимов Ш. И. Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантириш: хусусиятлари ва ҳозирги замон муаммолари	68
Ситмуратов Т., Қудияров К. Иқтисодиётга хорижий инвестицияларни жалб қилишнинг устувор йўналишлари	73
Ҳасанов Т.А. Ўзбекистонда уй-жой коммунал хизматларни кўрсатишда профессионал бошқарувчи корхоналар иштирокини кенгайтириш масалалари	75
Ergashev I.I., Mullaeva M.A. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda investitsiyalar jalb qilishning ustuvor yo'nalishlari va tendensiyalari	78
Тошқулов А. Ҳ. МДХ мамлакатларида қишлоқ хўжалиги корхоналарини солиққа тортиш тизими	82

**ОБРАЗОВАНИЕ. МЕТОДОЛОГИЯ.
ПСИХОЛОГИЯ**

Сагиндикова Н. Дж. Шахс масъулиятининг касбга боғлиқлиги хусусиятлари	89
Абдимуратов Ж.П. Семья-основа благоденствия страны	92
Акимов Н.Т. Гимнастика секциясына балаларды таълап алыў усыллары	95
Альджанова Г. А. Технология проектно-контекстного обучения в системе профессионально-педагогического образования	98
Tosheva D. I. Milliy qadriyatlar - boshlang'ich sinf o'quvchilarini ekologik tarbiyalashning muhim omili	101
Раджабов У.Р. Умумий ўрта таълим мактаб ўқувчиларида жисмоний сифатларини миллий ҳаракатли ўйинлар орқали ривожлантиришни педагогик аҳамияти.	104

MILLIY QADRIYATLAR - BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI EKOLOGIK
TARBIYALASHNING MUHIM OMILI

Tosheva D. I.

Buxoro davlat universiteti Pedagogika fakulteti

Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning asl mazmunida o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga yo'naltirilgan.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek: "Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasi avvalambor yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, Vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bevosita bog'liq. Eng asosiysi, ularning qalbida boy tariximiz, madaniy merosimiz bilan faxrlanish tuyg'usi kamol topadi. Biz barchamiz – fuqarolar ham, jamiyat ham, davlat ham Vatanimiz ravnaqi uchun, mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash uchun, tarixiy, ma'naviy va madaniy merosimizni saqlash, boyitish va kelgusi avlodlarga bezavol etkazish uchun birdek mas'ulmiz" [1]. Shunday ekan, o'quvchi-yoshlarimizni ma'naviy va madaniy merosimizni saqlash, boyitish va kelgusi avlodlarga bezavol etkazishni o'rgatishimiz zarur. Shunday manbalar borki, u bir millatning qadim o'tmishi, etnik qadriyati, qolaversa, boy ma'naviy –madaniy merosi sifatida uzoq dovonlarni bosib o'tadi hamda bugungi va kelajak avlodni tarbiyalash, shuningdek, kamol toptirish uchun meros bo'lib qoladi. Mana shunday manbalardan biri qadimgi yozma yodgorliklardan biri bo'lmish Avestodir. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda: „Ota – bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribasi diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan.....tarixiy yodgorliklar orasida bundan qariyb uch ming yil muqaddam Xorazm vohasi hududida yaratilgan „Avesto“ deb atalgan bebaho ma'naviy obida alohida o'rin tutadi, O'lis ota-bobolarimizning aql zakovati, qalb qo'ri mahsuli bo'lmish bu noyob yodgorlikning zamin to'fonlaridan qanchadan qancha og'ir sinovlardan o'tib, bizning davrimizgacha yetib kelganining o'zida katta ma'no mujassam....." [2,3].

Avestoda ijtimoiy adolatga yo'g'rilgan g'oyat insonparvar qarashlar nafaqat inson, balki butun borliq,tuproq, havo, suv, koinot,yulduzlar, hayvonlar, hasharotlar, parranda-yu darrandalar yaxlit olamining o'zaro munosabatlari orqali inson ma'naviy-axloqiy me'yorlarini ilk bor ishlab chiqdi. Inson faoliyati xatti- harakatlari va munosabatlarining qonuniyatlarini dastlabki ko'rinishlarda, biroq qiymatini yo'qotmaydigan darajada yuzaga keltirdi. Xuddi ana shu umuminsoniy, asotiriy-diniy va dunyoviy g'oyalar mag'zida „Avesto“ ning ijtimoiy- tarixiy hodisa sifatida mohiyati belgilanadi. „Avesto“ g'oyalari inson va tabiat hayot va uning mohiyati atrofdagi dastlabki tasavvurlar ilgari suriladi va bu g'oyalar insoniyat sivilizatsiyasining ilk kurtaklari sifatida o'zini namoyon etadi. Darhaqiqat, tarixiy taraqqiyot shundan dalolat beradiki, insoniyat tafakkuri va tasavvuri evalyutsion taraqqiyotining ilk „sakrash“ bosqichlari „Avesto“ ga borib taqaladi va undan yetarli darajada quvvat oladi.

Bundan uch ming yil ilgari odamlar tasavvuridagi ilk aqliy va madaniy o'zgarishlar bevosita „ Avesto“ orqali umuminsoniy qadriyatlar maqomini egalladi. O'z davrida „Avesto“ odamlarni ezgulikka, yaxshilikka da'vat etuvchi ilohiy imdod, ruhiy va ma'naviy chaqiriq bo'lib dunyoga keldi. „Avesto“ ta'limotiga ko'ra, ikki kuch: yaxshilik (yaxshilik kuchlariga Ahura Mazda) va yomonlik (yomonlik kuchlari Angra Manyu) mavjud bo'lib, ular bir-birlariga abadiy murosasizdirlar. Yaxshilik kuchlarida insonlarni yuksak fazilatlariga asoslanib jismoniy, axloqiy, aqliy, tabiatni himoya qilish kabi go'zallikka doir juda ko'p muammolar mujassamlashgan. Jumladan, Zardusht munojotlarida Yazdondan yerda dehqonchilig-u chorvachilikni rivojlantirish uchun kishilarning sog'lom, baquvvat bo'lishini ta'minlashi iltijo qilingan, yaxshi ish, yaxshi xulq, yaxshi odat ularni barqaror bo'lishi tilangan.

„Avesto“ koinot va zamin hodisalari paydo bo'lgan davrning kitobi, tabiat haqidagi fan: havo, suv, tuproq, yorug'lik, yer yumaloq shaklda u uch okean bilan o'ralganligi haqidagi bilimlarni boyitadi. „Avesto“da bir qultum suv, bir hovuch tuproq, bir nafaslik havoning ham muqaddasligi ko'rsatib o'tilgan. „Avesto“da yerning, daryolarning, bog'larning, tog'larning, sahrolarning, o'simlik va hayvonot olamining bunyod etish tarixiga oid bilimlar tizimini ham bayon qilingan.

O'tmishdagi ajdodlarimiz tabiatni asrab-avaylash, undagi boyliklardan unumli foydalanish, xususan, yoshlarni tabiatga bo'lgan munosabatini yaxshilash borasida juda ko'p ijobiy fikrlarni bayon etganlar. Jumladan, bu masalalarni biz zardushtiylik dini va uning muqaddas kitobi „Avesto“ matnlarida yoritilganligining guvohi bo'lamiz. Darhaqiqat, „Avesto“ madaniyati tabiat pokizaligini, muhit tozaligini targ'ib qilgan. Unga ko'ra hayvonlar, olov, yer, havo, suv va o'simliklarni himoya qiluvchi Axura Mazdo boshchiligida «Yetti Mavjudot» mavjud bo'lgan, olov yoqish uchun toza va quruq o'tin ishlatilgan. Doimo yashil bo'lgan archa haqida mufassal ma'lumotlar keltirilgan.

Otashparastlar tabiat ifloslanishiga yo'l qo'yishmagan, shuning uchun suv,yer, tuproq, havo, olov, yashash muhiti tozaligiga ahamiyat berib, hayvon va o'simlik turlarining sonini ko'paytirishga intilishgan. „Avesto“da bolalar yosh paytidan ko'chat o'tqazish, uy-ro'zg'or buyumlarini yasash, yerga ishlov berishni bilishlari shart deb ko'rsatilgan.

Zardusht g'oyalarining amaliy ahamiyati shundaki, ularda turli kasalliklarning oldini olish hamda atrof-muhit musaffoligini ta'minlovchi usullar to'g'risida ham ma'lumotlar beriladi. Bu boradagi usullar quyidagi uch guruhdan iboratdir: 1) axlatlarni berkitish, ifloslangan joylarni tuproq, tosh yoki kul bilan ko'mib tashlash; 2) olov yordamida, issiq yoki sovuq havo vositasida mikroblarni yo'q qilish; 3) kimyoviy usul (kul, sirka, sharob, turli giyohlar - sandal va isiriq tutatish, aloe, piyoz, sarimsoq, qizil qalampir va hokazolarni iste'mol qilish) orqali mikroblarni yo'qotish, orqali yuqumli kasalliklarga barham berilgan

Ta'limot mazmuniga ko'ra kasallik tarqatuvchi ayrim hashoratlarning o'ldirilishi evaziga suvni saqlash qoidalarini buzgan yoki itni o'ldirgan kishilarning gunohi kechirilgan. Bu o'rinda alohida me'yor belgilangan, ya'ni, yuqorida qayd etilgan gunohni sodir etgan kishi 1000 ta echkiemar, 1000 ta suv qo'ng'iz, yoki kasallik tarqatuvchi pashshani o'ldirishi

yoki 10000 ta ruhiyatni tetiklashtiruvchi o'simlik bargi, barsum berishi lozim bo'lgan. Bizga yaxshi ma'lumki, mikroba va yuqumli kasalliklar suv, havo va tuproq vositasida tez tarqaladi va keng hududga yoyiladi, shu bois "Avesto" g'oyalari ko'ra ularni asrash, ulardan foydalanishga nisbatan oqilona munosabatni qaror toptirish o'ta muhim sanalagan. Ularni asrash qoidalarini buzgan kishilar 400 qamchi urish bilan jazolanganlar.

"Avesto"da inson omili, uning salomatligini ta'minlash masalasi alohida bayon etilgan. Bugungi kunda xalq tabobatida qo'llanilib kelayotgan va kishilar salomatligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etgan ayrim usullar xususida ma'lumotlar beriladi. Bildirilgan fikrlar mazmuniga ko'ra mavjud kasalliklarni davolashda dorivor o'simlik (giyoh)lar yordamida tayyorlangan vositalardan samarali foydalanilgani ma'lum bo'ladi. Ana shunday dorivor vositalar sirasida kunjut, ko'knori, zira, piyoz, savsan, turp, xurmo, sabzi, behi, asal, zaytun moyi, shakar, shira hamda sedaning nomi qayd etiladi. Ayrim kasalliklarni bartaraf etishda dorivor o'simliklarning ildizi, poyasi, bargi, guli, mevasi va urug'laridan tayyorlangan qaynatmalarning foydasi katta ekanligi ta'kidlanadi. Kasalliklar rivojlanish davri, holati va turiga ko'ra rejim asosida, duo o'qitish, parhez saqlash, dori iste'mol qilish, shuningdek, jarrohlik amallarini tashkil etish kabi yo'llar bilan davolangan. Asarda tabiblar tomonidan e'tirof etilgan va ularning faoliyatlarida asosiy axloqiy-ma'naviy g'oya bo'lib xizmat qilgan qasamnoma matni ham keltirilgan.

"Avesto"da bayon etilgan tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish haqidagi ma'lumotlardan ma'lumki, qadimgi kishilarning o'rtacha umri 80-90 yil, ayrim odamlar esa, yashash sharoitiga, muhitiga qarab 140 yil umr ko'rishgan.

"Avesto"da yerni, suvni, xonani, badanni, kiyim-kechakni, oziq-ovqatni toza saqlash haqida fikr yuritilgan. Insonlar bandalikni keltirgandan so'ng ularni qo'yar joylarini shahar va qishloqdan yiroqda, balandlikda joylashtirish va o'rab qo'yish uqtirilgan. Odam yoki it murdasi tekkan yerda bir yilgacha ziroat ekin mumkin emas, deyiladi. Inson yoki hayvon o'ligi tushgan soy, ariq, hovuz, quduqlarni bir necha marta suvga to'ldirib bo'shatish, yomg'ir suvi bilan yuvish ta'kidlangan.

Zardushtiylik diniga sig'inuvchilar quyosh va suvga e'tiqod bilan qarashadi. Suvlar, daryolar, soylar va ko'llarni Ardivisura-Anahita –Nohid yulduzi timsolida ko'rishadi. Suv orqali butun hayot, borliq taqdirini, mavjudligini ana shu yulduzga bog'lab, unga hamd-u sanolar aytishadi, madhlar kuylashadi, iltijolar qilishadi, to'kin-sochinlik, farovonlik istab duolar aytishadi. Jumladan: "Barcha suvlarni olqishlaymiz. Barcha giyohlarni olqishlaymiz. Barcha ashavanlarning halol, qudratli va oliyjanob fravashiylarini olqishlaymiz. Suvlarni chorlaymiz va sharaflaymiz. Giyohlarni chorlaymiz va olqishlaymiz. Barcha ashavanlarning pok, zabardast va ezgu fravishlarini chorlaymiz va olqishlaymiz" [2,79].

Ana shu tarzda Zardushtiylik ta'limotida suvga farovonlik, rizq-u ro'z, to'kin-sochinlik, manbayi sifatida qaraladi. Barcha jonzorlar, hayvonlar o'simliklar suv bilan tirik. Rizq-u ro'z ayni suv bilan barakali bo'ladi. Shuning uchun suvga, daryo, soylarga va anhorlarga madhiyalar aytilib ular muqaddas sanaladi. Suvga nisbatan poklik, pokizalik, aziz-u mukarramlik, butun borliqqa qaynoq hayot va jo'shqin ruhiyat baxsh etguvchi xilqat sifatida qaraladi.

Boshqacha aytganda „Avesto“da tabiatning qudratli kuchlari poetik tafakkur bilan ilohiylashtiriladi, muqaddas qadriyatlar ideallar sifatida tabiatni yashnatuvchi kuchlar ulug'lanadi" [4,109].

"Avesto"da quyosh hayot manbai o'sish-ulg'ayish, yashash uchun rag'bat beruvchi ilohiy omil timsolida qaraladi. Ikkinchi tomondan Quyosh mehr, muruvvat, ezgulik, butun borliqqa marhamat ko'rsatuvchi sifatida ifoda etiladi, unga sajda qilinadi hamd-u sanolar o'qiladi:

“Sen bu xonumonda yorug'lik bo'li!

Sen bu xonumonda abadiy nur bo'li!

Sen bu xonumonda munavvar bo'li!

Uzoq – uzoq zamonlar rastohez(qiyomat)ga qadar paydo bo'lib, sen abadulabad to mashhar kuniga dovur ezgu va qudrat sohibi bo'li!" [3,62]. Quyoshga ana shu tarzda butun borliqni asraguvchi va rivojlantiruvchi manba sifatida qaraladi. Bog'-rog'larni, o'simliklarni o'sish, hayvonot olamining beziyonligi, inson hayotining qut-barakasi va farovonligi quyosh bilan bog'liq holda tushuniladi. "Xurshid-Yasht" da quyoshga iltijolar qilinadi, salovatlar o'qiladi, hamd-u sanolar aytiladi:

“-Ey pok Havm! (Havm- Sanskrit tilida “ savma” muqaddas giyohning nomi .Shifobaxsh o'simlik sifatida Havm sharbati marosimlar chog'ida ichiladi.) Men seni o'z bag'rida undirgan serhosil va keng zaminni olqishlayman !

Men seni giyohlar pahlavoni, xushbo'y oliyjanob Mazda giyohi qilib o'stirgan zaminni olqishlayman!

-Ey Havm!

Tog'lar cho'qqisida unib o's va hamma yerda shod-u xurram bo'li!

Shubhasiz, sen Ashah-haqiqat sarchashmasisan!" [3,10].

Bu inson va tabiat o'rtasidagi munosabatning o'zaro bog'liqlik va uyg'unlikning o'ziga xos ko'rinishi. Ilohiy tafakkur bilan dunyoviy falsafaning sintezlashgan hodisasi. Havm daraxtiga sig'inish va unga iltijolar qilishda tabiatni, yaxshilik olamini, giyohlarni, rizq-u ro'zni, farovonlikni asrash matlabi yotadi. Va ana shunday oliyjanob "Mazda giyohi" sifatida unga hamd-u sanolar o'qilib, oliy haqiqatning muqaddas ne'mati darajasiga ko'tariladi. Uning tog'lar cho'qqisida durkun, shod-u xurram, ya'ni barq urib o'sishini tilashadi, undan madad so'rashadi. O'z taqdirini, turmush farovonligi va rizq-u ro'zi baland bo'lishini uning timsolida ko'rishadi. Ana shunda ilohiy giyohni vujudga keltirgan sarzaminga olqishlar aytishib, iltijolar qilishadi.

"Avesto" odamlarni ezgulikka da'vat etuvchi, yaxshilikni himoya qiluvchi, yovuzlik va jaholatdan uzoqlashtirishga chaqiruvchi g'oyalarni ilgari suradi.

Agar biz "Avesto"ni ulug' axloq kitobi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Zero, "Avesto" inson xatti - harakati, fe'l-atvorini tartibga soluvchi turmush me'yorlarining qomusi sifatida ham alohida ahamiyatga ega. „Avesto“ jamiyat

ma'naviy qiyofasini shakllantirishga asos bo'lgan huquqiy-me'yoriy hujjat maqomini egalladi. „Avesto“ning huquqiy-me'yoriy hujjatlarini o'rganar ekan, A.Perixanyan uni bir necha yo'nalishlarda talqin etadi. Ulardan: **Hayvonlarga qarshi jinoyatlar:** - jumladan, uy hayvonlari itlar, qushlar va boshqa jonivorlarga qarshi xatti-harakatlar, ularga nisbatan shavqatsizlik, nafs yo'lida qurbon qilish singari jinoyatlar.

Tabiat va tabiiy ne'matlarga qarshi jinoyatlar - yer, suv, havo, olov, o'simlik dunyosiga zarar keltiruvchi, ularni ifloslantiruvchi yoki barbod etuvchi hatti-harakatlar. Va yana bir qancha jinoyatlar mavjud bo'lib ular „Avesto“ qonunlari bilan qattiq jazolangan.

Masalan: «Avesto»da oila gigienasi, atrof-muhitni, aholi yashaydigan joylarni toza tutish, ko'cha, hovli, suv havzalari, ariq va chashmalarni iflos qilmaslik haqida maxsus boblar mavjud. Chunonchi, ko'cha eshigi yoniga axlat to'plab quygan xonadon sohibiga jamoaning hukmi bilan 25 darra, hovuz yoki chashmadan nopok ko'za yoki chelakda suv olgan shaxsga 5 darra urilgan. Suvning ustiga uch marta yomg'ir yog'ib o'tgach, u oldingidek odam va hayvonlar ichadigan suvga aylanadi, deb hisoblangan. Yerni iflos qilgan, uni asrash qoidalarini buzgan shaxslar „400 marta qamchi urish“ jazosiga mahkum etilgan.

«Avesto»da bemorlarni davolashning turli usullari ko'rsatilgan. Ulardan oila, shaxsiy gigienasi hamda qiz va o'g'il bolalarni parvarishlash, tarbiyalash qoidalari haqidagi fikr-mulohazalar hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

«Avesto» falsafasida —olam va odam, inson va jamiyat haqidagi tasavvurlarning, ular o'rtasidagi munosabatlarning jamuljam ifodasi. U insonning hissiy va aqliy olamiga kuchli ta'sir o'tkazuvchi kishini fikrlashga da'vat etuvchi buyuk qudrat. Shunga ko'ra — tabiat jamiyat va inson o'rtasida munosabatlarni ma'naviy-ruhiy va axloqiy mezonlar orqali uyg'unlashtiruvchi, kishini qurshab olgan olamni uning taraqqiyot omillarini o'rganishga, hayot mazmunini anglashga chorlaguvchi falsafadir.

Xulosa qilib aytganda, «Avesto» asarida insonning barkamol bo'lib yetishishida uning so'zi, fikri hamda ishi ezgu bo'lishi va ezgulikning tantanasi uchun xizmat qilishiga katta e'tibor beriladi. Ushbu axloqiy uchlik g'oyasi eng qadimgi davrlardan boshlab kishilik jamiyati taraqqiyotining keyingi bosqichlarida yaratilgan barcha ma'rifiy asarlar mazmunining shakllanishiga asos bo'lgan. Zero, unda insonning inson sifatida ma'naviy va moddiy jihatdan kamol topishi uchun zarur bo'lgan muayyan talablar o'z ifodasini topib, Hayot kodeksi sifatida nafaqat SHarq balki G'arb xalqlarining ham muhim ma'naviy merosi bo'lib qoldi. Asarda ifoda etilayotgan masalalarning ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olganligi Zardusht g'oyalari nazarini va amaliy ahamiyatini oshirib, uning qimmatiga bugungi kunda ham yuqori bo'lishiga olib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганнинг 25 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси.

«Avesto» tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimai. Toshkent. G'afur G'ulom nashriyoti. — 2015 yil. 3 - 32 bet.

Avesto va uning insoniyat taraqqiyotidagi o'rni. — T.: Fan, 2001.y

Boltaboyev X., Mahmudov .M “ Adabiy estetik tafakkur tarixi” T. Mumtoz so'z nashriyoti. 2012. - 291b.

Milliy qadriyatlar - boshlang'ich sinf o'quvchilarini ekologik tarbiyalashning muhim omili.

Tosheva D. I

Buxoro davlat universiteti Pedagogika fakulteti

Pedagogika kafedrasida o'qituvchisi.

Rezyume. Ushbu maqolada zardushtiylik dinining muqaddas kitobi „Avesto“da tabiatga bo'lgan munosabat, tabiiy unsurlarni asrash, ularni qadrlash va ularni e'zozlash haqida diniy, madaniy va ijtimoiy-siyosiy fikrlar bildirib o'tilgan. „Avesto“ da insonning ma'naviy va moddiy jihatdan kamol topishi uchun zarur bo'lgan muayyan talablar o'z ifodasini topgan bo'lib u bevosita , olam va odam, inson va jamiyat haqidagi tasavvurlarning, ular o'rtasidagi munosabatlarni jamuljam etgan hayot kodeksi sifatida nafaqat SHarq balki G'arb xalqlarining ham muhim ma'naviy merosi bo'lib hisoblanadi.

Bir so'z bilan aytganda bu muqaddas kitobda ekologik qadriyatlarning aks ettirilganligi haqida ma'lumot berib o'tilganligi tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: Avesto, qadriyat, tabiat, ekologiya, gigiyena, tarbiya, barkamol shaxs, ezgulik.

Национальные ценности являются важным фактором экологического образования учащихся начальной школы.

Тошева Д. И. Бухарский государственный университет

Резюме. В этой статье Зороастризм, Авесто, обсуждаются религиозные, культурные и социально-политические взгляды по отношению к природе, сохранение, оценку и ценности природных элементов. Авесто содержит конкретные требования для духовного и материального развития человека, который представляет собой кодекс жизни, который обобщает понятия вселенной, мира и людей, человека и общества. Это значительное духовное наследие не только для Востока, но и для западных народов. Одним словом, эта книга посвящена анализу экологических ценностей.

Ключевые слова: Авесто, ценности, природа, экология, гигиена, воспитание, совершенство, доброта.

National values are an important factor in the environmental education of elementary school students.

Tosheva D. I

Bukhara State University

Summary. In this article, Avesto, the holy book of the Zoroastrian religion, expresses religious, cultural and socio-political views on the relationship of nature, the preservation, appreciation and respect of natural elements. The Avesto contains specific requirements for the spiritual and material development of the individual, which is a code of life that summarizes the concepts of the universe, the world, and people, human and society. It is a significant spiritual legacy not only for the East but also for the Western nations.

In a word, this book deals with the analysis of environmental values

Keywords: Avesto, value, nature, ecology, hygiene, upbringing, perfection, goodness.